

MODANING KELIB CHIQISH TARIXI

S.B.Yadigarova, Termiz Davlat Universiteti xorijiy til va adabiyoti

1- kurs magistranti

Annotasiya: Bu maqola insoniyat tarixida modaning yaratilishi tarixi haqida bo'lib, unda uning kelib chiqish sabablari, modaning yaratilishdagi guruh turlari, kolleksiya to'plamlari, uning taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida yozilgan. "Haute couture" va "Pret-a-porter" kolleksiya to'plamlari haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: moda, antic davr, aksessuarlar, vogue, kontraktorlar, Levi Straus, Koko Chanel, Kristian Dior, Yuber Jivanshi, Kenzo Tokada, Yoshi Yamamoto, Cucci kutyurlar, pret-a-porter, haute couture, couture, modalar uyi, estetika.

MODA- lotincha "modus-me'yor" ,usul,qoida"so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) Turmush yoki madaniyatda muayyan did yoki qiziqishning ma'lum vaqtgacha qaror topishi ;
- 2) Kiyim shakli va namunalarining o'zgarishi;
- 3) Vaqtinchalik ,tez o'tib ketadigan shuhrat .

Uslubdan farqli o'laroq moda turmush buyumlari va badiiy asarning tashqi dhakllarining qisqa muddatli hamda yuzaki o'zgarishlarini ifodalydi. MODA -kiyim –kechak,poyabzal ,aksessuarlar, bo'yanish, soch turmagi, turmush yoki madaniyatda muayyan did yoki qiziqishning ma'lum vaqtgacha qaror topishini o'z ichiga oladi.

MODA o'ziga xos atama bo'lib ko'pincha odatiy tendensiyani insonning ko'rinishi va kiyinishi, shuningdek xatti-harakatlaridagi uslublarni anglatadi.

XIX asr oxirigacha moda atamasi mavjud emas edi, ammo modaning ijtimoiy fenomen sifatida antik davrlardan boshlab mavjudligi haqida tarixiy manbalardan bizga ma'lum. Chunki bu vaqtda aholining asosiy qatlami past darajada edi, shunga ko'ra aholi birinchi navbatda zaruriy bo'lgan mahsulotlargagina ehtiyoj bo'lgan.

Moda mahsulotlari asosan zargarlik buyumlari, shohona kiyimlar faqatgina kam sonli zodagonlar va boylar tomonidan sotib olinardi xalos

Taxminan 1890-1960 yillarda moda kiyimlari va aksessuarlarining ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi va bu ishlab chiqarish kichik biznesdan katta industriya ya'ni moda industriyasiga aylandi. Shunday qilib XIX asrning oxirlariga kelib modaga oid maxsus jurnallar, gazetalar paydo bo'la boshladi. Bu jurnal va gazetalarda mavsumning yangiliklari haqida hikoya qilinardi.

1950-1960 yillarga kelib rivojlangan mamlakatlarda moda rivojining tendensiyalarini tahlil qilib boruvchi firmalar paydo bo'la boshladi. Bu esa o'z navbatida dizaynerlarga va mato ishlab chiqarish fabrikalarga ham talab kuchayib bordi.

Moda mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi ikki guruhga bo'linadilar :

- 1) To'g'ridan –to'g'ri ishlab chiqaruvchilar;
- 2) Kontraktorlar

To'g'ridan –to'g'ri ishlab chiqaruvchilar –bular shunday kompaniyalarki, ular o'z mahsulotlarini, shaxsiy markalarini yaratib, modellar kolleksiyalarini ishlab chiqarishadi va undan keyin ularni o'z shaxsiy korxonalarida ishlab chiqarishadi. Bunga misol tariqasida AQSH dagi **LEVI STRAUSS and CO** kompaniyasini olishimiz mumkin. Bu tipdagi yirik kompaniyalar juda kam. Bunday kompaniyalar o'zlari modellar yaratib va kolleksiyasining barchasini to'liq ishlab chiqaradigan bunday kompaniyalar chegaralangan assortimentdagi mahsulotlarni kam seriyada va unchalik katta bo'lmagan tirajda ishlab chiqarishadi.

Kontraktorlar esa faqatgina dizayn yaratib berish bilan shug'ullanishadi. Masalan **CUCCI, LEVIS** va hokazolar.

1960-1980 yillarda moda ikki darajaga bo'lindi;

- 1) **Kutyuryelar** mahsuloti –individual buyurtmalar. Bunga misol qilib mashhur kutyuryelar **KOKO SHANEL, KRISTIAN DIOR, IV SEN LORAN, YUBER JIVANSHI** larni olishimiz mumkin.
- 2) **Pret-a-porte** – o'rta sinf uchun ommaviy ishlab chiqarish.

1990 yillarda modada "**plyuralizm**" ustunlik qildi. Boshqacha qilib aytganda, bu davrda biror bir uslub hukmron emas edi, chunki moda tendensiyalari bir necha trendlarga bo'linib ketgan edi. Bu bilan parallel ravishda o'zgarishlar tezligi o'sib borardi, chunki yangi uslub, moda haqidagi ma'lumotlar qulay kommunikasiya vositalari yordamida bir zumda tarqala boshlardi. Asr oxiriga kelib moda szilarli darajada yoshardi.

Moda industriyasi G'arbiy Yevropa sivilizasiyasining fenomeni sifatida shakllandi. XX asrning oxiriga qadar modaga o'zga madaniyatlarning ta'siri bo'lmagan lekin XX asr globallashuv nafaqat Yevropa modasining butun dunyo bo'yicha ko'rsatilishiga, balki bu industriya Sharq mamlakatlarining ta'sir ko'rsatishiga ham sabab bo'ldi.

Yaponiyada xalqaro miqyosidagi moda mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar paydo bo'ldi. Masalan Isse Mike, Yoshi Yamamoto va boshqalarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Shuningdek parijslik kutyure Kenzo Tokada butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Dunyoda mashhur jurnallardan biri "**VOGUE**" sahifalarida kundalik hayot uchun mo'ljallangan kolleksiyalarni emas balki, asosiy yo'nalishlar, tendensiyalarni namoyish qilib boradi.

Moda kiyim bozori narxlar shkalasi bo'cha ikki guruhga bo'linadi;

- 1) **Pret-a-porter** –tayyor libos bo'lib, u har kunga mo'ljallangan yoki uni mass-market deb ham atashadi.
- 2) **Courtture**- faqat buyurtma asosida tantanali vaziyatlar uchun tikilgan libosdir.

“Pret-a-porter” kolleksiyasidan farqli ravishda moda Couture standart razmerlar bilan emas balki, millimetrlar bilan ish ko'radi.Libos buyurtmachi tanasida yaratiladi,birorta detal ham osilib yoki qiyshiq turishi mumkin emas.

Dunyoga mashhur dizaynerlar ishlaydigan Modalar uylari tomonidan yaratiladigan buyumlar bir nechta kategoriyalarga bo'linadi . Ularning eksklyuzivi Haute Couture. Haute Couture dagi buyumlarni kutuyurlarning shaxsan o'zlari buyurtmaga ko'ra faqat yagona nusxada yaratishadi.

Yuksak moda haftaliklari va prêt-a-porter moda haftaliklari har xil vaqtda o'tkazilishi jiddiy nazoratga olinadi. Haute Couture namoyishlarida faqat boy-badavlat mashhur kishilar ,100.000 \$ ortiq baholanadigan libos sotib olish imkoniyatiga ega bo'lgan odamlar qatnashishlari mumkin.

“Haute-Couture” dan keyin “Couture” darajasidagi buyumlar keladi. Bu moda uylari ham mijoz o'lchamlari asosida yagona nusxada libos tikishadi ,ammo ular “Haute Couture” modalar uyining boshqa talablariga javob bera olmaydilar

Xulosa qilib aytganda, Moda inson taraqqiyotining rivojlanishining bir ko'rinishi bo'lib ,u insoniyat turmush tarzi rivojlanishi , ozgarishi bilan o'zgarib, rivojlanib boraveradi. Moda did, estetika bilan chambarchars bog'liqdir. Har bir davrning o'ziga xos kiyinish uslubi bo'lgani kabi modada ham davrga qarab o'zgarishlar sodir bo'ladi. Moda mavzusi kun sayin , tobora ommalashib bormoqda, shu bilan birga unga qiziqish ham tobora o'sib bormoqda. Shu sababli modaga oid maqolalar, kitoblar, darsliklar, biografiyalar soni ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Kawamura. Y.” An introduction to Fashion studies” Oxford and New York 2005
- 2.Хелен Говорек *Закупки в сфере моды.* Минск 2009
- 3.А.Пименов *Хочу –вижу* Москва 2010
- 4.Yuldasheva.V.”Peculiarities of fashion Industry Terminology translation”Dissertation paper, Tashkent. 2013